Annotatsiya: Iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali kadrlarning o'rni juda muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida malakali ishchilar va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda turizm sohasining deyarli barcha yo'nalishlarida malakali kadrlar ishtirokisiz yuqori samaradorlikka erishish murakkab vazifadir. Shu sababli turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlar malakasini oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu borada yildan-yilga o'z samarasini ko'rsatayotgan xorijiy tajribalarni o'rganish va qo'llash muammoning samarali yechimlaridan biri sanaladi. Ayni paytda ko'plab xorijiy mamlakatlarda malakali kadrlar tayyorlashda dual ta'lim shakli qo'llanilmoqda. Dual ta'lim – ta'limning nazariy qismi oliy ta'lim muassasasida, amaliy qismi esa ish joyida o'tkaziladigan shakl bo'lib, bu tizim institut, korxona va talabalar uchun manfaatlidir. U zamonaviy va malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada turizm sohasida dual ta'lim shakli asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish masalasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: turizm sohasi, dual ta'lim shakli, xorijiy tajriba, kadrlar boshqaruvi.

Abstract: Qualified personnel play a crucial role in all sectors of the economy. The demand for skilled workers and specialists in the production, industry, and service sectors remains high. In particular, achieving high efficiency in almost all areas of the tourism sector without qualified personnel is a complex issue. Therefore, improving the qualifications of employees working in the tourism sector remains a relevant and important task. In this context, the application of foreign experience, which continues to yield positive results year after year, is considered an effective solution. Today, many foreign countries are implementing the dual education format in the training of qualified professionals. Dual education implies that the theoretical part is conducted in a higher educational institution, while the practical part takes place in the workplace. This system benefits three parties – the institute, the enterprise, and the student – and contributes to the preparation of modern and highly qualified specialists. This article discusses the management of training highly qualified personnel in the tourism sector based on the dual education format.

Key words: tourism industry, dual education, foreign experience, human resources management.

Аннотация: Квалифицированные кадры играют важную роль во всех секторах экономики. Потребность в квалифицированных рабочих и специалистах в сферах производства, промышленности и услуг остаётся высокой. Особенно в современных условиях достижение высокой эффективности в различных направлениях туристической отрасли без участия квалифицированных кадров представляет собой серьёзную проблему. Поэтому повышение квалификации сотрудников, работающих в сфере туризма, остаётся актуальным вопросом. Одним из эффективных решений этой проблемы может стать использование зарубежного опыта, который год за годом демонстрирует положительные результаты. В настоящее время во многих зарубежных странах используется дуальная форма обучения при подготовке квалифицированных кадров. Дуальное образование предполагает, что теоретическая часть осуществляется в высшем учебном заведении, а практическая – на рабочем месте. Такая система выгодна для трёх сторон: учебного заведения, предприятия и студента, а также способствует подготовке современных квалифицированных специалистов. В статье рассматривается вопрос управления подготовкой высококвалифицированных кадров в туристической сфере на основе дуального обучения.

Ключевые слова: индустрия туризма, дуальное образование, зарубежный опыт, управление человеческими ресурсами.



KIRISH

Mamlakatimizda rivojlantirilayotgan ko'plab sohalar qatori turizm yo'nalishida ham faoliyat yuritayotgan kadrlar malakasini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, turizm industriyasining barcha bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatayotgan yuqori malakali mutaxassislarning bilim va tajribasini yanada boyitish maqsadida davlat va soha vakillari tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar yildan-yilga o'z samarasini bermoqda.

Ushbu amalga oshirilayotgan ishlar natijasida yoshlar o'rtasida turizm sohasiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ta'lim muassasalarida ushbu yo'nalishga bo'lgan talab sezilarli darajada oshmoqda, shuningdek, turizmga qiziquvchilar soni hamda ularning ulushi kengaymoqda. Natijada bilimli, iqtidorli, tashabbuskor va halol xizmat qiluvchi yuqori malakali kadrlar soni ham ortib bormoqda.

Davlatimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida ushbu yo'nalish tobora taraqqiy etmoqda. Sohani yanada rivojlantirish va davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan yuksak maqsadlarga erishishda zamonaviy, yetuk kadrlar hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, turizm yo'nalishida kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmonida "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hujjatda 2021/2022 o'quv yilidan boshlab amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish maqsadida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimini joriy etish belgilab berilgan.¹ Bundan tashqari so'ngi yillarda ta'lim tizimida dual ta'lim shaklini keng targ'ib qilish, jumladan turizm sohasida ham ushbu ta'lim shaklini samarali imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha bir qancha qaror va farmonlar joriy qilinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonning turizm sohasidagi kadrlar masalasi va uni rivojlantirish, hamda sohadagi kadrlar tajribasini oshirishda dual ta'lim imkoniyatlarini aniqlash maqsadida shu paytgacha qadar bir qancha olim va tadqiqotchilarimiz o'z tadqiqotlarini olib borganlar va o'rganishlari yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini berganlar. Jumladan:

M.Amonboyevning "Turizm industriyasida bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning ta'lim modeli" nomli maqolasida turizmga kadrlar tayyorlash tizimi haqida o'z tadqiqotlarini keltirib o'tganlar va unda "Ish beruvchilarning bitiruvchilarga qo'yadigan asosiy talabi – talabalarning universitetda o'qish paytida o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini o'tash jarayonida to'plangan tajribasining muhim ahamiyati" – haqida o'z qarashlarini bayon qilganlar;

A.Raxmatov esa o'zining "Turizm sohasida malakali kadrlar qo'nimsizligining holati va mavsumiylik muammosini hal etish yo'llari borasida tavsiyalar" nomli maqolasida "Turizm sohasida malakali kadrlar qo'nimsizligining holati va mavsumiylik muammosini hal etish yo'llari" ni tadqiq etib, o'z tavsiyalarini bergan;

Shuningdek rus olimlaridan biri M.V. Polevyaning "Turizm industriyasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha zamonaviy muammolar va vazifalar" nomli tadqiqot ishida turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat deb belgilaydi:

- kadrlar tayyorlash tizimining holatini baholash va rivojlanishini prognozlash
- boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish
- kadrlar tayyorlash tizimi va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashligini ta'kidlagan

Yana bir rus olimi Lavrova T.A. o'zining "Turizm sohasiga kadrlar tayyorlashning zamonaviy yo'nalishlari" nomli tadqiqot ishida turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishga to'squinlik qilayotgan asosiy muammolar qatoriga quyidagilar kiritadi:

- raqamli innovatsiyalarni joriy etishni hisobga olgan holda professional standartlarni takomillashtirish zarurati;
- turizm va mehmondo'stlik sohasi uchun kadrlar tayyorlashning eskirgan o'quv-uslubiy bazasi;
- oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va o'quv va kasbiy laboratoriyalar (ta'lim sayyohlik agentliklari, mehmonxonalar, restoranlar) mavjudligini ta'minlash zarurati;
- mehmonlar va mijozlar bilan muloqot qilish uchun chet tillarini yetarli darajada bilmaslik kabi bir qancha sabablarni o'rgangan.

Undan tashqari dual ta'lim, ya'ni amaliy va nazariy ta'limni birlashtiruvchi tizim Germaniyada juda keng tarqalgan va bu borada ko'plab olimlar o'z fikrlarini bildirishgan;

Alfred D.W. (Alfred M. Schmidt)ning fikricha, dual ta'lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati katta bo'lib, ushbu tizim talabalarga ish joylarida tajriba orttirishga, mehnat bozoriga kirish uchun zarur ko'nikmalarni egallashga yordam beradi deb ta'kidlaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/>



Yana bir nemis tadqiqotchisi Ralf E. (Ralf T. Gunter) esa dual ta'limning ta'lim sifatini oshirishga qaratilganligini va bu tizim orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan birlashtirish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Nemis olimi Klaus H. (Klaus J. Kohn) dual ta'limni o'qituvchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish nuqtai nazaridan muhim deb hisoblaydi. U o'qituvchilarning ish joylarida faol ishtirok etishi, shuningdek, amaliy tajriba almashish imkoniyatlari orqali ta'limning sifatini oshiradi, – deydi.

Olim Birgit B. (Birgit B. Schneider)ning fikriga ko'ra dual ta'lim tizimining yoshlar uchun iqtisodiy barqarorlik va ish o'rinlariga kirish imkoniyatini ta'minlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu tizim orqali talabalar nafaqat bilim olishadi, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.²

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola ilmiy-nazariy mulohazalar, tadqiqotchi olimlarning izlanishlari hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalangan holda tayyorlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barcha sohalar qatori turizm sohasida ham zamonaviy ilm-fan, ishlab chiqarish, texnika, texnologiya va iqtisodiyotda erishilgan yutuqlarni ta'lim tizimiga tatbiq etish, xususan, oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim sifatini oshirish asosida malakali kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni samarali boshqarish uchun, eng avvalo, yetarli moddiy-texnik baza, kuchli ilmiy salohiyat, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xorijiy tajribalarning joriy etilishi hamda talabalar uchun tizimli va mazmunli ta'lim muhiti yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi uch yilda mamlakatimizda turizm sohasiga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari soni 16 tadan 30 taga, ulardagi talabalar soni esa 4 100 nafardan 11 500 nafargacha oshgan. 2020-yilda oliy ta'lim muassasalarida turizm yo'nalishida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati 24,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 37,6 foizga yetdi.

Shunga qaramay, sohada hali ham qator muammolar mavjud. Jumladan:

ta'lim dasturlarida talabalar uchun berilayotgan bilim va ko'nikmalar zamon talablari darajasidan orqada qolmoqda;

sohaning haqiqiy mutaxassisi bo'lgan malakali professor-o'qituvchilar soni yetarli emas;

OTMlarda zamonaviy jihozlar yetishmaydi;

o'quv dasturlari bilan amaliyot bazasi bo'lgan turizm korxonalari o'rtasida integratsiya yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Ushbu muammolar natijasida bitiruvchilarning amaliy malakasi va turizm sohasidagi ish talablari o'rtasida nomutanosibliklar yuzaga kelmoqda. Bunday vaziyatda xorijiy davlatlarning samarali tajribasini o'rganish va milliy tizimga moslashtirib joriy etish eng maqbul yechim sifatida qaralmoqda.

Xususan, Germaniya, Ispaniya, Avstriya va AQSH kabi davlatlarda turizm sohasida zamon talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlashda dual ta'lim tizimi keng qo'llanilmoqda. Turizm yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bir vaqtning o'zida nazariy bilim bilan birga amaliy ko'nikmalarni ham egallashlari zarur. Bunday yondashuvda ta'limning dual shakli eng maqbul yechim hisoblanadi.

Quyida biz dual ta'lim shaklining turizm sohasini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilamiz.

Turizm bo'yicha dual ta'lim kursi nima haqida?

Turizm yo'nalishidagi dual ta'lim kursining asosiy maqsadi – sayohatni samarali tashkil etishni o'rgatishdan iborat. Bunda talabalardan yuqori darajadagi kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalar talab etiladi, chunki ular mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash va ularni turistik xizmatlarga aylantirishni o'rganadilar. Dual ta'lim tizimining asosiy o'ziga xos jihati – nazariy fanlar va amaliy mutaxassislik bilimlarining uyg'unligidir. Bu nafaqat turizmga oid bilimlarni, balki biznes asoslarini ham o'zlashtirish imkonini beradi. O'quv jarayonida talabalar chet tillari, geografiya, siyosat, gastronomiya kabi yo'nalishlarda ham chuqur bilim oladilar, bu esa ularga kelajakda turizm sanoati uchun yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Turizm bo'yicha dual ta'lim kursini tugatgandan so'ng nima qilish mumkin?

Turizm sohasida ishga joylashish imkoniyatlari keng va xilma-xildir. Bitiruvchilar o'zlari uchun mos va istiqbolli faoliyat yo'nalishini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu yo'nalishlar qatoriga marketing, mehmonxona sanoati, mehmonxona boshqaruvi, sport turizmi, sog'lomlashtirish va davolovchi turizm hamda

² Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) <https://www.unwto.org/>



tadbirlarni boshqarish kiradi. Shuningdek, sayyohlik agentliklari, mehmonxonalar yoki ularga yaqin sohalarda faoliyat yurituvchi kompaniyalarda ish topish mumkin.

Turizm bo'yicha dual ta'lim kursi qanday malaka beradi?

Turizm sohasidagi dual ta'lim kursi bitiruvchilarga o'zlarining birinchi professional malakasini olish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu integratsiyalashgan o'quv dasturi orqali talabalar turizm xodimi yoki unga tenglashtirilgan boshqa kasbiy malakaga ega bo'ladilar.

Nima uchun turizm bo'yicha dual ta'lim kursini tanlash muhim?

Turizm sanoatida ish o'rinlarining kengligi sababli sohada ko'plab faoliyat yo'nalishlari mavjud. Shu bilan birga, bu sohaning ommabopligi sababli raqobat ham yuqori. Dual ta'lim kursi esa bitiruvchilarga nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy tajriba ham beradi, bu esa ularga mehnat bozorida boshqa abituriyentlarga nisbatan sezilarli ustunliklar yaratadi. Ushbu ta'lim shakli, shuningdek, ixtisoslashuv va oliy ta'limni davom ettirish uchun ham keng imkoniyatlar beradi. Xalqaro yo'nalishdagi universitetlar yoki kasb-hunar akademiyalari orqali talabalar o'qish davomida chet elda semestr yakunlash imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.³

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, turizm sohasida kadrlar tayyorlashda dual ta'lim tizimining o'rni juda muhim. Bugungi kunda O'zbekiston turizmini rivojlantirish hamda sohada faoliyat yuritayotgan kadrlar malakasini oshirishda ushbu ilg'or tajribani joriy etish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Joriy yilning iyun oyida, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida professional ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish hamda Germaniya tajribasi asosida dual ta'limni samarali joriy etish bo'yicha qator muhim vazifalar belgilab berildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi qaroriga muvofiq, mamlakatimizda turizm sohasida xalqaro standartlarga mos uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob beradigan yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, hamda xizmatlar sifatini jahon talablari darajasiga olib chiqish maqsadida qator yangi tartiblar belgilandi.

Ushbu qarorga ko'ra, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab, davlat oliy ta'lim muassasalarida turizm va mehmonxona xo'jaligi yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash tizimi uch yillik oliy ta'lim dasturlari asosida tashkil etiladi. Bu esa mazkur sohada ta'limning yanada amaliy, intensiv va mehnat bozoriga yo'naltirilgan shaklini joriy qilish imkonini beradi.⁴

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-sonli "Oliy ta'lim tizimida dual ta'lim tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2025/2026 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich dual ta'lim asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, jumladan, "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini joriy etish belgilab qo'yildi.

Mazkur qarorda dual ta'limning asosiy maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan.

Dual ta'limning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash;

ta'lim olayotgan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarning, korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ishlab chiqarish yoki boshqaruv faoliyatiga oid tajribani o'rganishlarini tashkil etish;

talabalarning kasbiy va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish;

bitiruvchilarning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashi uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlash;

oliy ta'lim tashkiloti va korxona o'rtasida o'qitish hamkorligini tashkil etish, o'quv jarayoniga yangi o'qitish texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning raqobatbardoshligini oshirish.

Dual ta'limning asosiy vazifalari esa quyidagilardan iborat:

mehnat bozori ehtiyojlariga, iqtisodiyot tarmoqlari va ularning rivojlanish istiqbollariiga mos ravishda mutaxassislar tayyorlash;

ijtimoiy sheriklik tizimini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlari mazmuni va tuzilmasining moslashuvchanligini ta'minlash;

ishlab chiqarish sharoitida kasbiy tajriba olish uchun talabalarga yetarli imkoniyatlar yaratish;

talabalarga o'qish bilan bir vaqtda ishlash imkoniyatini yaratish.⁵

Ushbu qilinayotgan ishlarining barchasi turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlar malakasini oshirish, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tarbiyalashdan iborat.

3 <https://www.iu-dualesstudium.de/lp/bachelor-tourismusmanagement/>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-269-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/>

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.01.2025 yildagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'lim tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 14-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili asosida xulosa qilib aytish mumkinki, turizm sohasi hozirgi kunda eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Shubhasiz, bu sohaga oid taraqqiyotda kadrlar masalasi birinchi darajadagi ahamiyatga egadir. Xususan, turizm sohasi O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va madaniy almashinuvni ta'minlashda ulkan salohiyatga ega.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan turizmni rivojlantirish maqsadida qabul qilinayotgan qarorlar, ayniqsa kadrlar tayyorlash va sohani takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan strategiyalar, sohaga katta turtki bermoqda. Shu bilan birga, turizm rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish, kadrlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish yo'lida amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, kadrlar malakasini oshirishda dual ta'lim dasturlaridan foydalanish orqali O'zbekiston turizm bozoriga zamonaviy, raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirish mumkin bo'ladi. Dual ta'lim yondashuvi qisqa muddat ichida quyidagi ijobiy natijalarni ta'minlashi mumkin:

mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ravishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati;
yuqori malakali pedagoglar tomonidan ta'lim berilishini ta'minlash;
mutaxassislarni maqsadli ravishda o'z kasbiy yo'nalishlarida ishga tayyorlashga hissa qo'shish;
o'qituvchilarni tayyorlashda ta'limda talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash;
talabalar uchun real amaliy faoliyatni o'zida aks ettiruvchi yangi imkoniyatlar yaratish;
ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish;
ilg'or pedagogik yondashuvlarni taqdim etish imkoniyati;
nazariy bilimlarni amaliy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatini yaratish.

Ushbu imkoniyatlar orqali O'zbekistonda turizm sohasi uchun yuqori malakali, amaliyotga tayyor va global mehnat bozori talablariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-269-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'lim tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/>
4. Amonboev, M. (2020). Obrazovatel'naya model' podgotovki budushchego spetsialista industrii turizma. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 1(26). <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2472>
5. Itolmasovich, R. A. (2024). Turizm sohasida malakali kadrlar qo'nimsizligining holati va mavsumiylik muammosini hal etish yo'llari borasida tavsiyalar. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(03), 447–452.
6. Полевая, М. В. (2009). Современные проблемы и задачи по совершенствованию системы подготовки кадров индустрии туризма. Транспортное дело России, (10), 101–103.
7. Лаврова, Т. А., & Сирота, Н. П. (2023). Современные направления подготовки кадров в сфере туризма. Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета, (6-1 (144)), 138–143.
8. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi. <https://uzbektourism.uz>
9. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO). <https://www.unwto.org>
10. IU International University of Applied Sciences. Bachelor Tourismusmanagement. <https://www.iu-dualesstudium.de/lp/bachelor-tourismusmanagement/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>